

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕҢДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылды 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2024

октябрь

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириү Министрлиги,
ОЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нагмет АЙЫМБЕТОВ	Хушбоқ НОРБҮТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тұлкин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Мариғжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Мұқаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдана РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САЛАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент, Казақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбай ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Казақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҮЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент, Казақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



МУГАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛДИРИНҮ

Shukurlayev J.M. Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mexanizmining determinantlari va tamoyillari	676
Xo'janiyozov B. I., Zokirov R.O. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda o'ilaviy muhitning o'rni	680
Shermatov M.N. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini o'rganish va tezkorlikni rivojlantirish xususiyatlari	685
Nazarov A. I Ummata'lim maktabalarida voleybolchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asoslari	689
Achilov T. S. Kurash harakatlari texnika va taktikasi o'rgatish metodikasi	694
Норкулов Ш.М. Болалар sportida машғулотларга ўргатишнинг дастлабки босқич ва услублари	698
Turg'unov B. O' . Voleybol ta'lim yo'nalishida taxsil oluvchi talaba qizlarda kasbiy mahoratni rivojlantirish	702
Тургунов Б. Волейбол таълим йўналишида таҳсил олувчи талаба қизларда касбий маҳоратларнинг шаклланишининг назарий-методик жиҳатлари	708
Arabjonov Sh.Sh. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha iqtidorli bolalar bilan ishslash texnologiyasini	712
Abdullaev G'.A. O'rta masofalarga yuguruvchilarning musobaqa oldi mashg'ulotlarida qayta tiklanish jarayonlarini boshqarish	717
Usmonova Sh.T. Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini foydalaniш	724
Xurramov E.E. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda xalqaro tajribalardan foydalanish	727
Allabergenov Z.U. Jangovor samboni texnik-taktik usullardan foydalanish masalasi	733
Raxmatullayev T.A. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash	739
Tursunqulov M.M. Yosh futbolchilarda tezlik fazilatini rivojlantirish uslublari	744
Tursunqulov M.M. 10-11 yoshgacha bo'lgan yosh futbolchilarning tezkorlik sifatini va texnikasini rivojlantirish masalasi	749
Худайберганов З.Б. Анализ влияния разнообразия стилей вольной борьбы на стратегии и результаты соревнований	754



YOSH FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI О'RGANISH.TEZKORLIKNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Shermatov M.N.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrası
dotsent v.b, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

Tayanch so'zlar: yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlikni egallashiga, sog'liqini mustahkamlash va mutanosib rivojlanishiga, xilma-xil ko'nikma va malakalarini egallab olishiga, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik, tezkorlik chaqqonlik.

Ключевые слова: юным футболистам приобрести физическую подготовку, укрепить свое здоровье и пропорциональное развитие, приобрести различные навыки и умения, силу, скорость, выносливость, ловкость и ловкость, скоростную ловкость.

Key words: young football players to acquire physical training, strengthen their health and proportional development, acquire various skills and abilities, strength, speed, endurance, agility and agility, speed agility.

Резюме:

Ushbu maqolada, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini o'rganish, tezkorlikni rivojlanirish xususiyatlari, mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarini tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o'rnatilgan standartlarga moslashtirish haqida ma'lumot berilgan.

Резюме:

В данной статье проводится исследование физической подготовленности юных игроков, особенностей развития ловкости, дальнейшего повышения популярности футбола в нашей стране, отбора перспективных и талантливых игроков и создания новой системы подготовки на профессиональном уровне., подготовка и повышение квалификации тренеров и судей на основе международных требований, дана информация по совершенствованию футбольной инфраструктуры и адаптации ее к установленным стандартам.

Summary:

This article examines the physical fitness of young players, the peculiarities of the development of dexterity, further increasing the popularity of football in our country, the selection of promising and talented players and the creation of a new training system at the professional level. , training and advanced training of coaches and referees based on international requirements, information is provided on improving the football infrastructure and adapting it to established standards.



Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashiga, sog‘liqini mustahkamlash va mutanosib rivojlanishiga, xilma-xil ko‘nikma va malakalarни egallab olishiga, futbol o‘yini texnikasi va taktikasining boshlang‘ich asoslarini o‘rganishiga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtidagi vazifasi, avvalo yosh futbolchilarining harakat funksiyalarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik), shuningdek o‘z harakatlarini vaqt oralig‘ida (havoda va mushaklarning zo‘r berishi darajasiga ko‘ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlaridir) shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e’tibor berish kerak. Chunki bolalik va o‘smirlik yoshida ana shu eng muhim jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir.

Shuni qayd qilish kerakki, dastlabki tayyorgarlik va boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik chaqqonlik bilan mustahkam bog‘liq ravishda tarbiyalanadi, bu esa siljishning (bir joydan ikkinchi joyga o‘tishning) rasional texnikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun zarur asos yaratadi. 8-12 yoshlar oralig‘ida yugurishdagi maksimal tezlikning anchagina ortishi harakatlar tezligining tabiiy o‘sishi bilan bog‘liq. 12-14 yoshda esa tezlik asosan tezlik-kuch sifatlarining va mushak kuchining o‘sib borishi tufayli ortadi.

Shuning uchun tezkorlikni rivojlantirishda yugurish sur’ati va katta mushak kuchini talab etadigan harakatlar chastotasini maksimal ravishda oshirishga harakat qilish kerak. Bunda tabiiy harakatlarga ko‘proq o‘rin berish lozim. O‘yin, musobaqa formasida bajariladigan sport o‘yinlari va harakatli o‘yinlar, mashqlar ham juda katta yordam ko‘rsatishi mumkin.

O‘yin mashqlarini bajarish yosh futbolchilarni g‘alabaga erishish uchun maksimal kuch sarflashga majbur etadi. O‘yin materiali mashg‘ulotdagi umumiy vaqtning 50% chasini egallashi kerak. Har bir mashq qisqa vaqt ichida (10-15 soniya) bir necha seriyali usulda bajariladi, dam olish intervali 10-15 m bo‘ladi. Maksimal tezlik bilan qayta yugurish muhim ahamiyatga ega, bu 20 m gacha masofada estafeta usulida bajariladi. Mashg‘ulotlarga estafetalardan tashqari 10-15 m ga yugurish bo‘yicha nazorat mashqlarini kiritish ham tavsiya etiladi. Murakkab harakat reaksiyasini va harakatlar chastotasini rivojlantirish uchun turli sport holatidan yuguriladigan tezkorlik mashqlaridan keng foydalanish kerak. Bu mashqlar turli xil ko‘rvu signallariga binoan, yugurish yo‘nalishini o‘zgartirib bajariladi. Bu esa o‘yin jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarni modellashtirib, signallarning har biriga javob harakatlari bilan reaksiya ko‘rsatish imkonini beradi.



Boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichida keng ko‘lamdagи o‘yinlar, o‘yin mashqlarini qo‘llashdan tashqari, asosiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari komplekslaridan foydalanish mumkin. Bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning mustahkam bazasini Yaratish uchun qulay shart-sharoitni yuzaga keltiradi. Ko‘proq tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan komplekslarni darsning asosiy qismi boshlarida qo‘llash kerak, shundan so‘ng bu sifatni takomillashtirishga yordam beruvchi o‘yinlardan foydalanish lozim. Kuch talab qiluvchi tegishli o‘yinlar va o‘yin mashqlari kompleksiga, shuningdek, chidamlilik ko‘rsatishni talab etadigan o‘yinlar komplekslariga ancha kam vaqt ajratiladi. Ular tegishlichka darsning o‘rtasida va oxirida o‘tkaziladi.

O‘yinlar va maxsus tayyorgarlik mashqlari komplekslarini o‘z ichiga oluvchi vositalarning rang-barangligi bolalar va o‘smlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshiroq takomillashtirishga va uning zaminida ularning asosiy jismoniy sifatlarini maxsus ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Jiddiy mashg‘ulot qilish va takomillashish bosqichida tezkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi, chunki tezkorlikni oshirish ancha murakkab ish. Tezkorlikning erishilgan darajada vaqtidan ilgari barqarorlashib qolishidan qutulish uchun maksimal tezlikda takroriy yugurish bilan bir qatorda tezlik-kuch, shaxsiy kuch mashqlaridan keng foydalanish, ya’ni yugurish tezligini, asosan, dinamik kuch hisobiga oshirish kerak. Kuchni tezlik bilan namoyon qilish qobiliyatini tarbiyalashda dinamik zo‘r berish uslubini qo‘llash maqsadga muvofiqdir, bunda engil yukni maksimal tezlikda boshqa joyga ko‘chirish yo‘li bilan haddan tashqari zo‘r berishga erishiladi.

Juda ham jadallik bilan bajariladigan mashg‘ulot kuchli vositadir. Shuning uchun maksimal tezlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tez-tez, lekin kichikroq hajmda o‘tkazib turish lozim. Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan mashqlar me’yorini to‘g‘ri belgilash, mashqlarning tezligini pasaytirmay, necha marta takrorlanishini, shuningdek, imkon chegarasi yoki unga yaqin tezlikni pasaytirmay bajariladigan uzlusiz mashg‘ulot ishlaringning qancha davom etishini hisobga olish uchun zarur. Tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar yosh futbolchining sub’ektiv sezgilarini, charchaganlikning tashqi belgilari yoki sekundomer ko‘rsatkichlari harakat tezligining pasayganligidan dalolat bergen vaqtida to‘xtatiladi. Bu pasayish mazkur mashg‘ulotda tezkorlikni rivojlantirish ustida olib borilayotgan ishlarni to‘xtatish uchun birinchi signal (“yetarlilik mezoni”) bo‘lib xizmat qiladi.

Maksimal tezlik bilan bajarish mumkin bo‘lgan mashqlar tezkorlikni rivojlantirish vositalari sifatida qo‘llaniladi. Birinchi navbatda, uch guruh mashqlari: umumiy rivojlantiruvchi (tezlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan),



o‘z sport turlaridagi maxsus mashqlar va boshqa sport turlaridagi mashqlar qo‘llaniladi (N.G.Ozolin, 1970). Bunda hech bo‘lmaganda uchta talabni hisobga olish lozim:

1. Mashqlar oxirgi tezlikda bajarilishi kerak.
2. Mashqlar shug‘ullanuvchilar tomonidan shunchalik yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerakki, harakat vaqtida harakatni bajarish usuliga emas, balki uni bajarish tezligiga zo‘r berilsin.
3. Mashqning davom etishi (yoki masofaning uzinligi) shunday bo‘lishi kerakki, mashqni bajarish oxiriga kelib tezlik charchash natijasida pasaymasin (V.M. Zaporojes, 1966).

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirishni davlat tomonidan yanada qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.03.12.2009 y. № 304.
2. Nurimov R.I. “Futbol”. Darslik. – T. 2005 yil.
3. Nurimov R.I., Iseev P. Futbolchilarini tayyorlashda pedagogik nazorat (Pedagogik tavsiyalar).- T. 1990 yil.
4. Sergeev G.M., Nurimov R.I. – Futbol bo‘yicha bolalar va o’smirlar sport maktabi olimpiya o’rinbosarlari, bolalar va o’smirlar maxsus maktabi, olimpiya o’rinbosarlari bilim yurti o’quv-mashq qilish va sport kamolotiga erishish guruhlari uchun dastur.- T. 1997 yil
5. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов.-Т. 2001
6. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов высокой квалификации. -Т.: 1998 год.
7. С.В.Голомазов, Б.Г.Чирва. Футбол. “Универсальная техника атаки”. – М. Спорт Академ Пресс. 2001.
8. R.I.Nurimov, Abidov Sh.U, Nurimov Z.R, S.R.Davletmuradov. -Sport va milliy o‘yinlar (Futbol). Darslik. ITA-PRESS. Toshkent. 2015 yil.